TIJORAT BANKLARI INNOVATSIYA LOYIHALARNI KREDITLASH OPERATSIYALARI

Xalikov Dilshod Kuchkarovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi
70412203-"Iqtisodiyotni monetar tartibga solish" magistratura mutaxassisligi

Kalit so`zlar: Innovatsiya, innovatsion texnologiya, bank, investitsion faoliyat, tijorat banki riski, menejment, marketing, modernizatsiya.

KIRISH

Dunyoda aksariyat davlatlarning eng muhim uzoq muddatli maqsadlaridan biri ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, barqaror iqtisodiy o’sish, ishsizlikni kamaytirish va bandlik darajasini oshirish, barqaror narx va aholining daromadlarini oshirish hisoblanadi. Xozirgi globallashuv sharoitida ushbu maqsadlar sarmoyani yangi texnika va texnologiyaga, barcha xo’jalik yuritish sohalarda boshqarish, xizmat ko’rsatish, ishlab chiqarish va mehnat qilishni yangi tashkil etish shakllariga kiritish yordamida erishilishi mumkin.[1]

Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, texnik va texnologik qayta jihozlash xamda istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish borasidagi iqtisodiy islohotlar natijasida real sektorda faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarning moliyaviy resurslarga bo’lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda.[2]

Shu bilan birgalikda ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli kreditlar ajratilishi talab etiladi. Shu boisdan, tijorat banklari faoliyatida uzoq muddatli kredit va investitsiyalar bilan bog’liq risklarni aniqlash va ularni boshqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiyotining real sektor tarmoqlarini rivojlantirishda, ya’ni innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishda tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish mavzusi doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

Hozirgi iqtisodiy bilimlar shakllanayotgan sharoitlardagi innovatsiyalar iqtisodiy o’sishni ta’minlab beruvchi asosiy omil sanaladi. Bundan esa shunday xulosa chiqarish mumkinki, hududdagi innovatsion faoliyat qanchalar faol va jadal bo’lsa, iqtisodiy rivojlanish darajasi ham shunchalar yuqori bo’ladi. Innovatsiyali o’zgarishlarni qo’llab-quvvatlamay va amalga oshirmay, ushbu vazifani, ayniqsa, uzoq muddatli istiqbolda ta’minlab berish juda murakkabligi barchaga ma’lum.[3]

Innovatsiya faoliyatini barcha pog’onalarda rag’batlantirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish zaruratini alohida ta’kidlash joiz, aynan mana shundagina innovatsion faoliyat sohasida muayyan natijalarga erishish mumkin. G.X.Roziqovaning ta’kidlashicha, «Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarning yaratilishi texnologik bazani modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini tubdan oshirish imkonini beradi».

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo’yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobni tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi.

---

[1] Kamilova I.X. Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda tijorat banklari investitsion kreditlarining rolini oshirish. // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, 2020, №4.

[2] Sultanov R.B. Investitsion loyihalarni moliyalashda yuzaga keluvchi risklarni boshqarish: nazariya va amaliyot. // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, 2021, №5.

[3] Matyoqubova D.O. Banklarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va monitoringini tashkil etish xususiyatlari. // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, 2019, №4.

Bankning investitsion moliyalash faoliyati ob'ekti iqtisodiyotning real sektori korxonalaridagi ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yoki modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki ishlab chiqarish xavfsizligini oshirish hamda qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini xarid qilish bilan bog'liq investitsion loyihalardir.[4]

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi xodimlari tomonidan korxonalar o'rtasida innovatsion faoliyat borasida har yili bir marta anketa so'rovnomalari o'tkaziladi. Ushbu so'rovnomalarning natijalariga ko'ra kichik sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini rivojlantirishga quyidagi muammolar to'sqinlik qilayotganligi ma'lum bo'ldi.

Birinchidan, kichik korxonalarda zamonaviy qimmatbaho uskunalarni xarid qilish uchun yetarli mablag'lar yo'qligi, mahsulotga bo'lgan talabning pastligi hamda innovatsiyalar narxining yuqoriligi.

Ikkinchidan, innovatsion infratuzilmalarni tashkil etish, innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun tadqiqot o'tkazish, patentlash va ishlab chiqarishga joriy etishga ko'p mablag'lar talab etilayotganligi.

Uchinchidan, innovatsiyalarning o'zini uzoq vaqtdan keyin qoplanishi, marketing va menejment ishlari yetarli darajada olib borilmayotganligi, yangi texnologiyalar haqida axborot yetishmasligi.[5]

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun innovatsion faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni bajarish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion sohaga kapital qo'yilmalarning manbalari turlicha bo'lishi mumkin: davlat tuzilmalari, tijorat banklari, xalqaro firmalar va tashkilotlar, jismoniy shaxslar va h.k. innovatsion faolligini rivojlantirish uchun eng qulay mablag'lar bank va boshqa ixtisoslashtirilgan moliyaviy tashkilotlarning maqsadli kreditlari hisoblanadi, chunki ular imtiyozli sharti bilan beriladi. Shuningdek, investitsiyalarning asosiy manbasi sifatida foydaning bir qismi va amortizatsion ajratmalardan tashkil topadigan korxonaning o'z mablag'lari hisoblanadi. Ushbu mablag'lar bevosita korxonaning samarali ishlashiga bog'liq.[6]

Yuqoridagi muammolardan biri innovatsion texnologiyalarga ketgan mablag'larni qoplash uchun uzoq vaqt talab qilinishi, bu esa tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlarning ham uzoq muddatga ajratilishiga to'g'ri keladi. Xozirgi kunda tijorat banklarining investitsion kreditlar berish salohiyatiga salbiy ta'sir qiladigan muammolaridan biri - respublikamiz tijorat banklarida milliy valyutadagi resurslar hajmida uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi hisoblanadi.

XULOSA

Hulosa qilib aytganda, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha choratadbirlarni amalga oshirish banklarning uzoq muddatli depozitlari miqdorini oshirishga xizmat qiladi. Aholining jamg'armalarini bank tizimiga bo'lgan ishonchini ko'paytirish asosida banklarning kapitalizatsiya darajasi oshirilsa, tijorat banklarning investitsion faoliyatni moliyalashtirish maqsadida beriladigan investitsion kreditlari hajmini keskin oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

[4] Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari» ilmiy tadqiqot markazi. Innovatsion xizmatlar bozorini shakllantirish va rivojlantirish hamda uning O;殿bekiston Respublikasi hududlari iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishdagi ta殿iri nomli monografiya. - T.: «Lesson press», 2020. -154-b.

[5] Ismailov D.A. Investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish usullarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo;殿icha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya avtoreferati. - T., 2022. -19-b.

[6] Tashmatov R.X. Innovatsion rivojlanish: muammo va yechimlar. - T.: «Lesson press», 2020. -38b-b.

1. Kamilova I.X. Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda tijorat banklari investitsion kreditlarining rolini oshirish. // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, 2020, №4.
2. Sultanov R.B. Investitsion loyihalarni moliyalashda yuzaga keluvchi risklarni boshqarish: nazariya va amaliyot. // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, 2021, №5.
3. Matyoqubova D.O. Banklarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va monitoringini tashkil etish xususiyatlari. // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, 2019, №4.
4. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari» ilmiy tadqiqot markazi. Innovatsion xizmatlar bozorini shakllantirish va rivojlantirish hamda uning O’zbekiston Respublikasi hududlari iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishdagi ta’siri nomli monografiya. - T.: «Lesson press», 2020. -154-b.
5. Ismailov D.A. Investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish usullarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya avtoreferati. - T., 2022. -19-b.
6. Tashmatov R.X. Innovatsion rivojlanish: muammo va yechimlar. - T.: «Lesson press», 2020. -38b-b.
7. www.stat.uz